

SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference

On Legal Science

№.3 (2)
2024

EMERGING FRONTIERS: DEVELOPMENTAL PERSPECTIVES ON QUANTUM LAW IN UZBEKISTAN'S LEGAL FRAMEWORK.....	1
Islombek Abdikhakimov.....	1
REVOLUTIONIZING NOTARIZATION: THE INTEGRATION OF SMART CONTRACTS IN NOTARY SERVICES.....	16
Shakhnoza Safarova.....	16
ENHANCING SUPPLY CHAIN INTEGRITY: MACHINE LEARNING APPROACHES FOR REAL-TIME IDENTIFICATION OF COUNTERFEIT PRODUCTS.....	37
Sanjarbek Tursunov.....	37
BARQAROR RIVOJLANSH SHAROITIDA SUV RESURLARINI TEJASH VA ISROF QILISHNI OLDINI OLIHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI.....	59
Javoxir Eshonqulov.....	59
TERRITORIALITY AND EXTRATERRITORIALITY IN CYBERSPACE	70
Salauat Konisbaev.....	70
YANDEX GO VA UNING RAQAMLI BOZORDAGI USTUN MAVQEYI.	79
E'zoza Razzaqova.....	79
RAQAMLI ASRDA YURISDIKSIYA CHEGARALARINI ANIQLASH MEZONLARI.....	85
Dilafroz Mirzakarimova.....	85

YANDEX GO VA UNING RAQAMLI BOZORDAGI USTUN MAVQEYI**E'zoza Razzaqova***Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*razzaqovaezoza22@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli bozorda Kundan kunga katta ulushga ega bo'lib borayotgan Yandex Go va u bilan bog'liq ba'zi muammolarni ko'rib chiqamiz. Bular sirasiga, Yandex Go ning ustun mavqe deya e'tirof etilishida vujudga kelgan kamchiliklar, qonunchilikdagi bo'shliqlar haqida batafsil yoritib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Raqobat huquqi, raqamli bozor, Yandex Go, ustun mavqe, ustun mavqeni suiiste'mol qilish.

Yandex Go - bu Yandex kompaniyasining transport va yetkazib berish bilan bog'liq mobil ilovasi. U Yandex.Taxi bazasida yaratilgan. Yandeksning bir nechta xizmatlarini o'z ichiga oladi: Taksi, Haydovchi, Transport, Oziq-ovqat, Do'kon, Yetkazib berish, elektr skuterlar ijarasi va "Ultima" va "Yandex.Market Ekspres" premium-klass taksi xizmatlari.^[1] Va ushbu ilova 2018- yildan buyon mamlakatimizda o'z faoliyati olib boradi, biroq 2023-yilgacha uni ustun mavqeda ekanligini aniqlash bir oz cho'zib yuborilgan. Raqamli bozordagi ustun mavqega ega bo'lgan subyektlar sirasiga Yandex Goni kirita olamiz. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi YandexGo bozorda ustun mavqega ega kompaniya sifatida tan olindi. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarni himoya qilish qo'mitasi tomonidan oldinroq taksi agregatorlari xizmatlari bozorida o'rganishlar o'tkazilayotgani va uning natijalari e'lon qilinishi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, Qo'mita tomonidan yo'lovchilarni tashish (taksi) uchun buyurtmalarni joylashtirish va taksi xizmatlarini ko'rsatishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari bozoridagi raqobat muhiti va tegishli bozor ishtirokchilari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustun mavqei (bozor ulushlari)ni aniqlash ishlari joriy yilning ikkinchi choragida (ya'ni 2022 yil natijalari bo'yicha barcha yakuniy hisobotlar shakllangandan so'ng) boshlangan bo'lib, ushbu bozorning o'ziga xos xususiyatlari va respublikaning har bir hududida ushbu bozorning rivojlanishi turli darajada ekanligi va alohida jihatlari mavjudligini hamda joriy yilda yangi "Raqobat to'g'risida»gi Qonun kuchga kirganligi va unda ustun mavqeni aniqlash mezonlarining o'zgarganligi tahlilni borishiga ma'lum darajada ta'sir qilganligini e'tirof etish zarur. O'rganish davomida yo'lovchilarni tashish (taksi) uchun buyurtmalarni joylashtirish va taksi xizmatlarini ko'rsatishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari bozoriga veb-sayt yoki mobil ilova yordamida buyurtma berish va haydovchini

topish imkonini beruvchi agregator xizmatlari va uning o'rnini ma'lum daraja bosuvchi telefon orqali despatcherlik xizmatlari bozori ham qamrab olindi. Tahlil jarayonida respublika bo'yicha jami 66 ta faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt (korxona)dan, shundan 58 tasi despatcherlik xizmati va 8 tasi mobil ilova orqali agregator xizmatini ko'rsatayotganligi ma'lum bo'ldi. Tahlillar natijasiga ko'ra, bozor ulushlari va ko'rsatilgan xizmatlari yuzasidan faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ichida eng katta bozor ulushi ya'ni 86,3 foizi "Yandex Go" platformasi hissasiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Shuningdek, bozorning kontsentratsiyasi yuzasidan mazkur xizmat bozorida sanoqli ishtirokchilar jami xizmatning asosiy qismini ko'rsatayotganini va bu bozordagi holat, jumladan xizmat narxi va sifatiga bir tomonlama ta'sir ko'rsatish xavfi mavjudligi ham tahlil jarayonida aniqlangan. O'zbekiston Respublikasidagi "Yandex Go" ilovasi orqali ko'rsatilgan taksi xizmatlarining 2022 yildagi moliyaviy natijalari yuzasidan rasmiy statistik ma'lumotlar Ridetech International B.V. kompaniyasi (Niderlandiyada ro'yxatdan o'tgan) tomonidan taqdim etilgan. Joriy yil 1 dekabrda boshlab "Yandex Go" platformasining agregatorlik xizmatlari O'zbekiston Respublikasi hududida soliq rezidenti "YandexGo UB" MChJ yuridik shaxs tomonidan taqdim etilishi e'lon qilindi. Ridetech International B.V. kompaniyasi "YandexGo UB" MChJ bilan yagona (umumiy) iqtisodiy manfaatga ega bo'lgan shaxslar hisoblanib, shaxslar guruhi sifatida, bozorning yagona sub'ekti sifatida qaraladi. Yuqoridagilarga muvofiq, joriy yil 4 dekabr kuni Qo'mita tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga asosan "YandexGo UB" MChJ yo'lovchilarni tashish (taksi) uchun buyurtmalarni joylashtirish va taksi xizmatlarini ko'rsatishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari bozorida ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt deb e'tirof etildi. Qo'mita ushbu bozorda barcha

ishtirokchilari tomonidan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning raqobatga qarshi kelishuvlarni va muvofiqlashtirilgan harakatlarni, insofsiz raqobat, iqtisodiy kontsentratsiya, ustun mavqeyini va ustun muzokara kuchini suiiste’mol qilish kabi harakatlarning oldini olish va bartaraf etish yuzasidan tizimli ravishda monitoring olib boradi.^[2] Shu o‘rinda mamlakatimizda bo‘lgan bir nechta

kichik muammolarga ko‘z yuritib o‘tish lozim, ma’lumki, 2023-yilning dekabr oyidagina Yandex mamlakatimizda ustun mavega ega ekanligi tan olindi, biroq undan avval ushbu taksilar tarmog‘i raqamli bozorda dominant kuchga ega edi va mijozlar bilan ba’zi muammolar yuzaga kelgan, bu muammolar orasida eng ommalashgani plastik kartalar orqali to‘lovni amalga oshirish holatlarida, Yandex go xodimlarining mijozlarga nisbatan qo‘pol xatti-harakatlari sanaladi. Bloger Shahnoza Soatova Yandex Go haydovchisi to‘lov karta orqali amalga oshirilgani sababli uni manziliga olib borishdan bosh tortganini aytib o‘z shikoyatini bildirgan edi. U o‘zining twitter sahifasida Yandex. Go xodimlaridan norozi fikrlarni qoldirgan. Iqtisodchi Bakirovning fikricha, bunday holatlarga birinchi bo‘lib monopoliyaga qarshi organ e’tibor qaratishi kerak. U Toshkent shahri va viloyat markazlarida taksi xizmati bo‘yicha bosh agregator bo‘lgan Yandex Go na yuridik shaxs sifatida va na doimiy muassasa yoki vakolatxona sifatida ro‘yxatdan o‘tgani haqidagi tasdiqni topa olmaganini ta’kidladi. Shuningdek, kompaniyaning O‘zbekistonda doimiy muassasasi yoki vakolatxonasi yo‘q, «Yandeks»ning esa Qozog‘istonda rasmiy ofisi mavjud. Iqtisodchi «Yandeks.Taksi» O‘zbekistonda qaysi huquqiy asoslarga ko‘ra faoliyat yuritayotgani bilan qiziqdi va Soliq qo‘mitasidan kompaniya soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tganmi, soliq to‘laydimi va qay darajada to‘laydi, degan savollarga javob berishni so‘radi.^[3] Bunga nisbatan qo‘mita bu borada

ba’zi kamchiliklarga duch kelganligini, biroq Yandex Go ga mazkur holat

bo'yicha so'rovnoma yuborganini aytadi. Ko'rib turganingizdek, bu borada ba'zi muammolar bor, ularni hal qilishda esa quyidagilarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Germaniyaning GWB 19-moddasini O'zbekiston holatiga moslashtirish. Germaniya Raqobatga qarshi harakatlar to'g'risidagi qonunning 19-moddasi bo'yicha, ustun mavqedagi kompaniyalar nohaq shartlarni majburlash, raqobatchilarni siqib chiqarish va ma'lumotlarni suiiste'mol qilish orqali ustun mavqeni suiiste'mol qilishadi. Ushbu modda asosida Germaniya Federal Kartel idorasi harakat qiladi va suiiste'mol holatlari aniqlansa, ma'muriy jarimalar kiritilishi mumkin. Ushbu islohotni amalga oshirish, raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining faoliyati yanada samarali bo'lishini ta'minlar edi. Shunday ekan, mamlakatimizda ham "ustun mavqe deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan subyektlarni avvaldan aniqlab, ularning harakatlarini baholab borish" maqsadga muvofiq bo'lar edi. 2021- yilda Germaniyaning raqobat to'g'risidagi qonuniga (GWB) kiritilgan tuzatish ustun mavqeni suiiste'mol qilish amaliyotlarini nazorat qilishni modernizatsiya qildi va kengaytirdi. Bundeskartellamt endi yirik raqamli kompaniyalarning raqobatga qarshi amaliyotlariga nisbatan tezroq va samaraliroq aralasha oladi. U "bozorlar bo'ylab raqobat uchun muhim ahamiyatga ega" kompaniyalarning raqobatga zarar yetkazadigan muayyan amaliyotlar bilan shug'ullanishini taqiqlashi mumkin. Kompaniyalar hali ustun mavqega ega bo'lib ulgurmagan bozorlarda ham nazoratni amalga oshirishlari mumkin. Bu avvalgi nazorat mexanizmidan sezilarli farqli bo'lib, Bundeskartellamtga bozorlarni ochiq saqlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va iste'molchilar tanlovini himoya qilish uchun erta bosqichda aralashish imkonini beradi.

Adabiyotlar

[1] Яндекс Go. https://ru.wikipedia.org/wiki/Яндекс_Go

[2] Raqobatni rivojlantirish va iste'molchini huquqlarini himoya qilish qo'mitasi
<https://raqobat.gov.uz/uzb/taksi-agregatorlari-hizmatlari-bozorida-tahlil-ishlari-yakunlandi/>

[3] Aksilmonopol tekshiruv ortidan «Yandex Taksi» Qozog'iston jamg'armasiga
6,6 million dollar to'lab berdi
<https://www.xabar.uz/mahalliy/aksilmonopol-tekshiruv-ortidan-yandex-taksi>